

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
YULDUZ YILLAGI

«Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivali Siz – iqtidorli o'g'il-qizlarni qo'llab-quvvatlash, o'z iste'dod va salohiyatingizni namoyon etish uchun keng imkoniyatlar yaratishga xizmat qilmoqda.

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

Tong

YULDUZI

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

ISSN – 2010-6092

2008-yil
22-dekabr
N:51
(66696)

Quvonchlardan qalbi shod,
yashar hur, yangi avlod!



«Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalining respublika bosqichi haqidagi maqolani 2-betda o'qiydiz

Respublikamizda 567 ta maktabdan tashqari ta'lim muassasalari mavjud. Shulardan 264 ta o'quv ijodiyoti, 122 ta texnik ijodiyoti, 105 ta ekologiya, 57 ta yosh sayyohlar va o'lkashunoslar hamda 29 ta sog'lom avlod markazlari, istirohat bog'laridir.

ISTE'DODLARNI IZLAB...



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari qo'mitasi va Xalq ta'limi vazirligi bilan hamkorlikda «Eski shahar» bolalar ijodiyoti uyida «Iste'dodli yoshlarni tarbiyalashda bolalar ijodiyoti markazlarining roli» mavzusida davra suhbatlari bo'lib o'tdi.

Unda soha xodimlari, deputatlar hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Fan, ta'lim, madaniyat va sport masalalari

qo'mitasi raisi Erkin Vohidov, XTVning o'rinbosari Usmonali Musayev, «Kelajak ovozi» yoshlar tashabbuslari markazi boshqaruvi raisi Bahodir Sharafov, «Kamolot» YOIHMQ raisining o'rinbosari Odina Jamoliddinova kabilar ishtirok etishdi.

Davra suhbatida ta'kidlanganidek, yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga chuqur hurmat ruhida tarbiyalash, ularning turli istiqbolli sohalarga bo'lgan qiziqishlarini shakllantirishda maktabdan tashqari muassasalar, xususan, bolalar ijodiyoti markazlarining xizmati kattadir.

Shuningdek, bugungi kunda markazlar oldida turgan muammolarni bartaraf etish, iste'dodli yoshlarni tarbiyalashda bolalar ijodiyoti markazlarining rolini yanada oshirish maqsadida ishtirokchilar tomonidan tavsiyalar berildi.



G'OLIBLAR SARALANADI

Qadrlil o'quvchilar! Gazetamiz sahifalarida «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalining o'tgan yilgi g'oliblari bilan tanishib borayapsiz. Ularga havas qilayotganingiz va ulardek bo'lishga intilayotganingiz tahririyatimizga kelayotgan maktublaringizdan ma'lum.

«Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivali Siz – iqtidorli o'g'il-qizlarni qo'llab-quvvatlash, o'z iste'dod va salohiyatingizni namoyon etish uchun keng imkoniyatlar yaratishga xizmat qilmoqda.

Natijada an'anaviy tarzda o'tkazib kelinayotgan festivalning nufuzi, sizlarning unda ishtirok etishga bo'lgan ishtiyoqingiz yil sayin ortib bormoqda.

Bugungi kunda mazkur festival bolalar orasida eng ommabop tanlovlardan biriga aylanib bormoqda. Dastlabki yili 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan 300 dan ziyod yosh iste'dod sohiblari ishtirok etgan bo'lsa, ushbu yilda 16 mingga yaqin bolajonlardan festivalda ishtirok etish uchun arizalar qabul qilingan.

17-24-dekabr kunlari poytaxtimizda «Yangi avlod» bolalar ijodiyoti festivalining respublika bosqichi bo'lib o'tmoqda. Biz har bir ishtirokchiga omad tilaymiz.

IJODIY BELLASHUV

«Kelajak ovozi» respublika iqtidorli yoshlar tanlovi serg'ayrat, izlanuvchan faol yigit-qizlarni aniqlash va rag'batlantirish, iste'dodini yuzaga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

«O'zbekiston madaniyati va san'ati forumi» jamg'armasi hamda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati markaziy kengashi hamkorligida tashkil etilgan tanlov yoshlarning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqarishga ko'maklashuvchi milliy loyihaga aylanib ulgurdi.

Tanlovning yoshlar o'rtasida tobora ommalashuvida 2007-yilda g'oliblarning mamlakatimizdagi oliy o'quv yurtlariga imtiyozli ravishda davlat granti asosida qabul qilinishi sport nominatsiyasining qo'shilishidir. Shuningdek, bu yil tanlovga qiziqishning yuqori bo'lishiga saralash jarayonlariga tuman bosqichlarining ham qo'shilgani o'zining ijobiy ta'sirini o'tkazdi. «Kelajak ovozi – 2008»da respublika bo'yicha 54 mingdan ziyod yoshlar ishtirok etdi.

Shu yilning 27-dekabr kuni «Istiqlol» saroyida g'oliblar aniqlanadi va taqdirlanadi. Biz esa g'oliblarni qutlab qolamiz.

O'z muxbirimiz

QO'G'IRCHOG'I YO'QOLDI

Bir kuni o'yingohdagi soyabon tagida yig'lab o'tirgan qizaloqni ko'rdim. U qo'g'irchog'ini yo'qotib qo'ygan ekan. Qanchalik ovutishga harakat qilmay, bo'lmadi. Axir uning dunyoda eng yaxshi ko'rgan qo'g'irchoq-da! Shu tobda unga hech narsa kerak emas. Hatto ota-onasi yangi qo'g'irchoq olib beramiz, deyishsa ham ko'nimadi. O'shanisiga o'rganib qolgan, har kuni kechqurun uni allalab uxlatgan emish. Qizaloqning holati menga kuyunchak onani eslatdi. Murg'akkina qalbida onalarcha mehr- muhabbat nish urib kelayotganidan ta'sirlanib ketdim. Endi u mehrini kimga beradi, o'yinchog'i – ovunchog'ini sog'inib qoladi-ku!

Osiyo XALILOVA,
Chilonzor tumanidagi
178-maktabning 9-«B» sinf
o'quvchisi



KO'P IZLANISHIM KERAK

Men Fariza Avezova Nukus shahridagi 37-o'rtta maktabning 8-sinfida o'qiyman. Birinchi marta «Oyzodaning yirtilgan kitobi» nomli maqolan «Jitkenshek» gazetasida chop etilganidan so'ng, bundan ruhlanib, yana ijodimni davom ettirdim. «Tong yulduzi»ga maqola, she'r va hikoyalar yozib turaman. Shuningdek, bo'sh vaqtlarimda I-sonli Eshjon baqchi Qo'spo'latov nomidagi musiqa maktabida xoreografiya bo'limida o'qiyman. Avvallari Qoraqalpog'iston radiosida «Yangi avlod» eshitirishini olib borgan edim. Kelajakda telejurnalist bo'lishni orzu qilaman. Bu orzuimga erishish uchun albatta o'z ustimda ko'p ishlab, ko'p izlanishim kerak. Siz aziz tengdoshlaringiz ham o'z ijodimdan ba'zilarini yubormoqdaman.



AYIRILMAS DOSLAR



Singlim To'marisning bog'chada birga o'ynaydigan do'stlari juda ko'p. Ularning ichida qo'shnimizning qizi Gulchehra ham bor.

Bir kuni Gulchehra uyimizga keldi. To'maris ikkovlari ko'chaga o'ynashga chiqib ketishdi. Oradan ko'p vaqt o'tmay singlim juda xafa bo'lib kirib keldi.

BIZNING MAKTABGA KELING

Sardor qizlarga havasingiz keladimi? Tengdoshingiz Hamza tumanidagi 227-maktabning 8-«A» sinf o'quvchisi Shahnoza Jo'raboyeva ham tuman «Kamalak» bolalar tashkilotining «Ma'naviyat va ma'rifat» yo'nalishi sardori. Yaqinda u o'z sinfidagi qizlar o'rtasida «Tamanno» ko'rik-tanlovini o'tkazdi. Bu bilan u sinfdosh qizlarni ham o'zi kabi tashabbuskorlikka, o'z iste'dodlarini

namoyish etishga undagan bo'lsa, ne ajab?! Tanlov yakunida bu sinfda Shahnoza kabi zukko qizlar ko'pligi aniqlandi. Shuning uchun 8-«A» sinf maktabda eng faol, namunalidir. Bu o'quvchilar bilan hecham zerikib qolmaysiz. Ular bilan do'stlashishni istasangiz, bizning maktabga keling.
Dilfuza TO'XTAXO'JAYEVA,
227-maktab o'qituvchisi



oq qalpoq qo'ndirgan purviqor Hisor tog'lari. Anorzor bog'lar va ta'mirdan chiqqan Sariosiyo tumanidagi 35-maktab. Ozoda, shinam yo'laklar, yorug' sinf xonalar – barchasi go'zal. Keng xona bir zumda ko'zlari chaqnaq turgan o'smir yigit-qizlar bilan to'ldi. Ustozlar kelishdi. Uchrashuv hayajonli boshlandi. Savollar ham ko'p bo'ldi. Bolalarga kitoblar ulashdik. Bizdan ularga sovg'a qolsin dedik. Ular ham bizga atab dil so'zlarini aytdilar. «Tong yulduzi» muxlislari esa bizni o'zlarining nafis she'rlari bilan siylashdi. Hilola, Dilnoza, Jo'rabek,

ko'p o'qib, ko'proq she'rlar mashq qilishni maslahat berdik.

Ertasi kuni 19-maktabda bo'lib, uning faoliyati bilan qiziqdik, mazkur o'quv maskani 1924-yilda tashkil topgan. Mustaqillik yillarida ziyo maskani tubdan o'zgardi. Hozirda bu yerda 1230 nafardan ortiq o'quvchilar tahsil olishmoqda. Har birining niyati ulug', orzusi olamcha. Majlislar zali bolalarning charaqlagan ko'zlari bilan yorishib ketdi.



QUVONCH OLIB QAYTDIK



Mohinur, Umida, Surayyolar, Shahnozalar... bir-birlaridan aqlli bolalar, yurtimizning ertasi, bo'lajak egalari.

Men bu maktablarni ko'rmaganimga yigirma yil o'tganiga ishonmay, hayratlanib turibman. Shuncha yil! Nahotki, shuncha yil o'tibdi?! Nihoyat, o'sha kutilgan hayajonli kun keldi. Bu o'zga palla, o'zgacha daqiqalar edi. Joylardagi hisobsiz uchrashuvlar – Farg'ona, Andijon, Namangan, Samarqand, Toshkent, Yangiyo'l... maktablar, oliy o'quv yurtlaridagi, eh-he, son-sanoqsiz, yuzma-yuz bo'lishlar bir yon-u, bunisi bir yon bo'ldi. Darvoqe, o'z qishloqdoshlaring bilan uchrashish, suhbatlashish boshqacha bo'larkan?! Tanish chehralar, ammo men ularning birortasi bilan yaqindan suhbatda bo'lmaganman. Chaqnaqan ko'zlar, jiddiy nigohlar, ular oldida o'zingni bir qadar noqulay tutasan. Go'yoki imtihondan o'tayotgandek sezasan o'zingni. Lekin eng quvonchlisi, bu bolalar dunyosi, pokiza, beg'ubor dunyo. Uning toza havosidan miriqib to'yinar ekansiz, qalbingiz orom topayotganini sezasis.

Quyosh charaqlab turgan tong. O'lsida moviy rangli, boshida

Inson bo'lgan nasli bek, Abduvahob qiziman. Asl millatim o'zbek, Onam qaro ko'ziman.

Surayyo Vohidovanning «O'zimni tanishtiray» she'ri ana shunday satrlar bilan boshlanadi. Otasini ulug'lagan qiz, millati bilan g'ururlangan yosh qalb, onasining mehrini ardoqlayotgan dunyo! Bunday qalbn olqishlamalik mumkinmi? Biz unga

Adolat, Maqsuda, Parvina, Elyor, Nargiza, Feruz... barchalarining dil so'zlarida mehr-oqibat, bilimga tashnalik, yurtni ardoqlash hislari jo'sh urib turganini payqab, beixtiyor sevindik.

Shu qadrdon dargohda bizga dars bergan marhum ustozlarimiz – Abdulla Karimov, Sattor Sodiqov, Sulaymon Haydarov, Sharof Meylikov, Ashur Mardonov, Chaman Qalandarov, Ra'no Hakimova, Xadicha Karimovalarning nomlarini esga oldik. Bizni shu darajaga yetkazgan ana shu fidoyi ustozlar edi. Ularning nomlarini har qancha e'zozlasak, xotirlasak, shuncha oz, shuncha kam.

Yig'ilish davomida yana dil so'zlari aytildi, she'rlar o'qildi.

– Kelajakda ota-onamga munosib qiz bo'lish niyatidaman, – deydi maktabning 8-sinf o'quvchisi Parvina Saidqulova. Maqsuda, Adolat va Nargizalarning orzulari ham ana shunday ulug'. Biz ezgu niyat qilayotgan shunday singillarimiz bilan faxrlansak arziydi.

Umuman, har ikki maktabda o'tgan yig'ilish murg'ak qalblarda o'zgacha tarixga aylanib qolgan bo'lsa, ne ajab?! Eng muhimi, biz yana bir sirli bolalar olamida bo'lib, undan mehr va quvonch olib qaytdik.

To'lqin HAYIT



– Voy, nima bo'ldi? – dedim.
– Endi, hech qachon Gulchehra bilan o'ynamayman?! O'zi birinchi boshladi, – dedi xafa bo'lib. Ertasiga ertalab eshik taqilladi.
– Kim?
– Och, To'maris! – dedi tashqaridagi tovush. To'maris Gulchehra ekanligini darhol sezib, u bilan gaplashgisi kelmadi.
– To'marisga nima demoqchi eding? – dedi Gulchehraga eshikni ochmay turib.
– Unga sovg'a bermoqchi edim, – dedi u.

Buni eshitib turgan To'marisning o'zi eshik tomon yugurib keldi-da, do'sti bilan qo'l berishib salomlashdi.

– To'maris, kechir meni! – deb Gulchehra unga chiroyli, lekin ichida hech narsa yozilmagan otkritkani berdi. Axir hali ular yozish-chizishni bilishmas edi-da. To'maris bo'lsa quvonib ketdi. U uyga olib kirib, stolning ustiga qo'yib:

– Hozir kelaman, – deb tashqariga yugurib chiqib ketdi. Men derazadan tashqariga qararasam, To'maris bilan Gulchehra ikkovlari qo'l olishib kulishib turishibdi. Ularning do'stlashganini ko'rib, men ham quvondim.



RASSOM MUROD

Oysanam juda odobli qiz. Uning to'rt yashar ukasi bor. Ismi Murodjon. U rasm chizishni juda yaxshi ko'radi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Oysanam ham, ota-onasi ham uni kelajakda rassom bo'ladi, deb maqtaydi.

Bir kuni Oysanam dars tayyorlab o'tirganida, uni opasi bozorga non olgani yubordi. Oysanam ketganidan so'ng, Murod shu xonaga kirdi va stol ustidagi daftar, qalamlarni ko'rib, quvonib ketdi. Darhol rasm chiza boshladi. Oysanam uyga kelsa, hamma daftarlarining varaqlari rasmga to'la. Uning qattiq jahli chiqib, ukasiga baqirdi va buni onasiga aytib berdi. Opasi Murodga urishmasdan sekin-asta tushuntira boshladi.

Oysanam ukasiga bir kun arazlab, u bilan gaplashmay yurdi. Opasini u bilan gaplashmasligi hammasidan og'iri bo'ldi. Murod o'zining qilgan xatosini shundagina tushunib, opasidan kechirim so'radi. Daftarlarimga rasm chizib, bir marta xato qilgandir, ukamning ko'nglini o'ksitmayin, deb Oysanam ham uni kechirdi. Lekin endi mendan ruxsatsiz daftarlarimga rasm chizma, deb ukasiga qattiq ogohlantirdi.

– Xo'p bo'ladi, opajon! – dedi Murod quvonib. Chunki uni opasi kechirgan edi-da!

Fariza AVEZOVA,
Qoraqalpog'iston Respublikasi,
Nukus shahridagi 37-maxsus
maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi

QORBOBONI QUCHAMAN

Sabrim tugab oxiri,
Hovlimizga chiqaman.
Qorni olib qo'limga,
Qorboboni quchaman.

Og'iz-burun, ko'z qo'yib,
Qorbobolar yasayman.
Men uning atrofida,
Doim o'ynashga shayman.

Umida MARDONOVA

SHE'RIYAT

O, she'riyat, sen mening borar yo'lim
Kelajakka uzatgan jajji qo'lim.
Sen men uchun bo'stondirsan, ham cho'lim,
Sendan qanday voz kechaman, she'riyat,

Hislarimni yozsam, bo'lmagay ado,
Bir o'tinchim: sendan qilmasin judo.
Qog'ozlarga to'kilib b'lgim fido,
Sendan qanday voz kechaman, she'riyat.

O, she'riyat, sen mening borar yo'lim
Orzu sari uzatgan ikki qo'lim.
Sen mening gul bog'imda gulgun dilim
Sendan qanday voz kechaman, she'riyat.

Mohinur QAYUMOVA,
Surxondaryo viloyati, Sariosiyo tumanidagi
35-maktabning II-sinf o'quvchisi

«Katta bobo» bekat

Aziz bolajonlar!

Bir zum bekatda tin olib, va'da berish xususida suhbatlashsak, nima deysiz? Odatda, odamlar nimaga bir-birlariga va'da berishadi? Hech bu haqda o'yab ko'rganmisiz? Kimdir birovga senga uni olib beraman yoki bo'lmasa, qo'limdan har qanday ish keladi, deya va'da berishni xush ko'radi.

Ba'zan og'zimizni to'ldirib, bo'lar-bo'lmas va'dalar beramiz-u, bu illatning nechog'li odobsizligini his qilmaymiz. Qolaversa, boshqalar shunday ham qilyapti, men ham bir yoki ikki bor yolg'on gapirsam nima qiladi, buning uchun osmon uzilib yerga tushmaydi-ku, deb o'zimizga o'zimiz taskin beramiz.

HECH KIM

ISHONMAY

QO'YADI


Shu holga bir bor ruju qo'yilsa, bas, undan bir umr qutilish mushkul. Hatto haq gapirib ham o'zgalarni ishontirish amri mahol bo'lib qoladi. Chin ko'ngildan aytilgan haqqoniy so'z ham yolg'on va'dalar soyasida qolib, vaqti kelganda, pand berishi mumkin.

Sizga nasihatim shuki, har doim bo'lar-bo'lmasga va'da berishdan o'zingizni tiying. Bilaman, oralarigizda kuchi, bilimi, aql-idroki, qobiliyati, imkoniyatiga baho berib, o'zini do'stlaridan, tengdoshlaridan ustun ko'rsatish maqsadida har xil va'dalar beradiganlar ham topiladi. Ularning yolg'on va'dasiga bir bor, boringki, ikki marta kimdir ishonishi mumkindir. Ammo uchunchi gal imonim komilki, unga hech kim ishonmay qo'yadi. Hatto o'zini oqlash uchun to'g'ri gapirsa ham, uning so'zini inkor qiladiganlar topiladi.

Siz ayni paytda ota-onangiz va mustaqil vataningizga yaxshi o'qib, a'lo xulqli bo'lishga, kelajakda komil inson sifatida ibratli amallarga bosh qo'shish borasida va'da berishingiz va bunga bir umr sodiq qolishingiz lozim. Agar so'zingizda qat'iy turib bergan va'dangizni ustidan chiqsangiz, aminmanki, hayotda aslo qoqilmaysiz, tanlagan yo'lingizdan adashmaysiz. Ezgu ishlarga bosh qo'shib, tengdoshlaringiz o'rtasida o'z o'rningizni topish oson kechadi. Shunda do'stlaringiz ham ko'p bo'ladi. Sizni bir so'zli inson sifatida hamma hurmat qiladi. Bu esa butun imkoniyatlarni ishga solib, ja'mi orzu-niyatlaringiz ro'yobga chiqishga imkon yaratadi. Inson uchun hayotda halol va pok yashab, bergan va'dasining ustidan chiqish oliyjanob fazilat ekanligi yodingizda tursin.

Islom USMONOV

BU PARTA KIMNIKI?



Siz doimo bir partada o'tirasizmi? Yoki partangizni tez-tez o'zgartirib turasizmi? Nima uchun bunday savol berayotganimizga tushunmayotgan bo'lsangiz kerak... Chunki Siz o'tirgan partaga qarab, qanday o'quvchi ekanligingizni darhol aytib berish mumkin.

Yaqinda bir maktabga bordik. Maktab endigina ta'mirdan chiqqan, jihozlari ham yangi keltirilgan ekan. Maktabda o'quvchilarning bilim olishlari uchun barcha sharoitlar yaratilgan edi. Sinf xonalarini mamnunlik bilan kuzatayotib, beixtiyor nigohlarimiz yangi partalarga tushdi.

Partalar shunaqangi «chiroyli» rasmlar bilan bezatilgan ediki, bu rasmlarni ko'rib o'quvchilar «ijodi»ga «qoyil» qoldik. Nima uchun, desizmi? Negaki, suratlarining rang-barangligiga «qoyil» qolmaslikning iloji yo'q edi. Nazarimizda, turli hayvonlar – kuchukcha, mushukcha, sichqonchalar qatorida o'quvchilar partaga o'zlarining suratlarini ham tasvirlab qo'yganga o'xshardilar. Partalarni tomosha qilayotib, bir narsaga amin bo'ldik. Bu maktab o'quvchilarining buyuk rassomlardan birgina farqlari bor edi. Buyuk rassomlar o'z ijodlarini oppoq qog'ozlarda tasvirlasalar, o'quvchilar esa to'g'ridan-to'g'ri partaga chizib qo'yishar ekan. To'g'ri-da, tayyor parta turganida, qog'ozga ne hojat?

Lekin sinfdagi hamma partalar ham bunday emas edi. «Oppoq yuzi»ga gard ham qo'nmagan partalarni ko'rib, bu partalarda kimlar o'tirishiga qiziqdik. Oppoq, toza partalarda a'lochilar o'tirishar, rasmlar bilan bezatilgan partalarda esa... Bo'ldi, yozmasangiz ham tushunib oldik, deysizmi? Ha, ana shunaqa.

Keyingi safar bu maktabga kelganimizda, «rassom» o'quvchilar uchun oq qog'ozlar olib kelishni niyat qilib qo'ydik. Sababi, o'quvchilar dars vaqtida ustozlari bergan topshiriqni bajarib, darsdan keyin «yosh rassomlar» to'garagida o'z ijodlarini namoyon etadilar. O'ylaymizki, ular hech qachon partasini bo'yab o'tirmaydi. Ana o'shanda ularga qarata «Partangizni ko'rsating», deya murojaat qilganimizda, xijolat bo'lmasdan, qadrdon partalarini ko'rsatadilar. Zero, toza va ozoda tutilgan partalar xosiyatli bo'lib, yil davomida puxta bilim olishingizda ko'makdosh bo'ladilar. A'lochi o'quvchilar esa buni zinhor unutmaydilar.

GULYUZ

Internet xabarlar

QIMMATBAHO RASM

Britaniyalik rassom Ernest Govard Shepardning «Vinni Pux» kitobiga chizgan rasmi 1.263 million funt (2 million dollar)ga sotib olindi. Londonda bo'lib o'tgan kimoshdi savdosida ushbu rasmga Sothebys bolalar adabiyoti uyushmasi mutaxassislari tomonidan ham yuqori baho berildi. Ernest Shepard hayot bo'lmasa-da, uning bebaho asarlari hanuz muxlislar e'tiboridan qolmayotgani rassom ijodining boqiyigidan dalolat bermoqda.



Lenta.ru

TO'QQIZ YOSHLI IJODKOR

Amerikalik to'qqiz yoshli bolakay Alek Grevenning «Qizlar bilan so'zlashish» nomli kitobi 20 th Centry Fox kinokompaniyasi prodyuserlarini qiziqtirib qo'ydi. Endilikda Alekning kitobi bo'yicha Gollivudda film suratga olinmoqda. Yosh ijodkor bu ensiklopediya bilan sinfdoshlarining qizlarga qanday munosabatda bo'lishni go'zal ifoda etgan. Bir yil mobaynida yozilgan ushbu kitob Alekning tengdoshlariga foydali maslahatlar bera oldi.

Open Space. ru.

KARIDORGIR KITOBLAR

Britaniyada bo'lib o'tgan kitob savdosida Joan Rolingning «Bard Bidlning ertaklari» kitobi 2008-yilning eng xaridorgir kitobi degan nomga sazovor bo'ldi. Kitobning 367.625 nusxasi 4-dekabrda chop etilib, oz fursat ichida muxlislar tomonidan xarid qilindi. Mashhurligi bo'yicha ikkinchi o'rinni «Ginnesning rekordlar kitobi» zabt etdi. Uchinchi o'ringa oshpaz Deliyey Smitning pazandalikka oid kitobi loyiq deb topildi.

News.ru.Com
xabarlari asosida
ZEBO qiz tayyorladi



TUMANDA BIRINCHI



Hozirgi kunda til o'rganishga qiziqmagan yoshlar bo'lmasa kerak. Poytaxtimizning Uchtepa tumanidagi 81-maktab o'quvchilari ham ingliz va fransuz tillarini puxta o'rganmoqdalar. Ochiq darslar va til oyligida ustozlaridan olgan bilimlarini sinovdan o'tkazayptilar.

Ular tayyorlagan bukletlar, devoriy gazetalarni maktabdoshlari katta qiziqish bilan tomosha qilishyapti. Chet tillarida she'rlar yod olib, kichik sahna ko'rinishlarini namoyish etishyapti.

O'quvchilarni o'z faniga qiziqitira olgan ingliz tili muallimalari Shoira Yusupova, Nigora Shomahmudova, fransuz tili o'qituvchisi Guli Mirzayevalarning astoydil qilgan mehnatlari o'z samarasini berdi. Ingliz, fransuz tillarini yaxshi o'zlashtirganliklari bois bu bilim maskani tumanda birinchi o'rinni egallashdi. Kelgusida o'quvchilar o'z bilimlarini butun respublikaga ko'z-ko'z qilishmoqchi.



SHOVQIN ZARAR EKAN

Tengdoshlarim, shovqinning inson salomatligi uchun o'ta zararli ekanligini bilasizmi? «Texnika asri» deb atalayotgan zamonamizda

shovqin-suronli musiqalar tinglash urf bo'lib qolgan. Buning natijasida bolalar orasida ham asab kasalliklari bilan og'riganlar soni ortib borayotgani sir emas. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, asab tolalari qayta tiklanmas ekan.

Birgina o'z sinfimiz hayotiga nazar tashlaylik. Sinfda shovqin-suron bo'lsa, nafaqat o'qituvchimiz, balki o'zimiz ham tezda charchab qolamiz, asablarimiz toliqadi. Bunday bo'lmasligi esa o'zimizga bog'liq.

Bolalar, tabiatda zararli shovqinlardan tashqari, foydali shovqinlar ham bor. A'trofigizga bir nazar tashlang: erta tongdagi bulbullarning xonishiga, ariqdagi suvning shildirashiga, daraxt barglarining shamolda shitirlashiga quloq tuting, qalbingiz zavqqa to'ladi.

Keling, do'stlarim, zararli shovqin-suronlardan o'zimizni asrab, tabiat qo'yniga oshiqaylik. Tanaffus chog'ida ham shovqin solmaylik. Axir tanaffus bizga dam olish uchun beriladi-ku!

Maftuna
RAHMONBEKOVA,
A.Navoiy nomidagi
Nafis san'at litseyining
5-sinf o'quvchisi



Men Nilufar Xolmatova, Qashqadaryo viloyati, Qamashi tumanidagi 17-o'rta umumta'lim maktabining 9-sinfida o'qiyman. Rasm chizish jon-u dilim.

Sevimli gazetamizda «Quvnoq tanaffus» sahifasining tashkil qilinishi ayni muddao bo'ldi-da. Undagi qiziqarli hangoma-yu hikoyalarni miriqib o'qib boryapmiz, boshqotirmalarini yechib, topqiriligimizni sinayapmiz. Menda bir taklif bor: shu

sahifada «Kimning rasmi chiroyli?» nomli tanlov e'lon qilinsa va har oyning yakunida g'olibning ismi-sharifi berib borilsa. Biz kabi tasviriy san'at ixlosmandlari tengdoshlarimiz chizgan rasmlarni tomosha qilib, bilganlarimizni o'rganamiz, g'oliblarga havas qilib, ulardek chizishga intilamiz. Men ham chizgan rasmlarimdan yuboryapman, rassom tengdoshlarim baho berishsa, mamnun bo'lardim.



TOPISHMOQLAR


U ko'klamda yashaydi,
Pashsha, chivin oshaydi.

O'ttiz ikki mard o'g'lon
Qo'riqlashar bir qo'rg'on.
Qo'shin kelsa yurtga gar,
Ikki yamlab bir yutar.

Qanoti yo'q, uchadi,
Kengliklarni
quchadi.

Habibullo NAZAROV, Toshkent shahar,
Hamza tumanidagi 64-o'rta maktabning
4-sinf o'quvchisi

Topqir, zukko bolajonlar! Rassom akangiz Sur'at SALOHIDDINOV chizgan rasmdagi chalkashliklarni toping va javoblaringizni bizga yozib yuboring.



SEHRLI TOSH

(Ertak)

Bor ekan-u yo'q ekan. Bepoyon sahrani kezib, bir yigit ketayotgan ekan. Qarshisida bir bechorahol kampir chiqib: «Hoy askar, agar boy bo'lishni istasang, men bilan yur», debdi. Yigit rozi bo'lib, unga ergashibdi. Ular uzoq yo'l bosib, kattakon daraxtning qarshisida to'xtashibdi. Kampir daraxtdagi kattakon kavakni ko'rsatib, yigitning qo'liga bir ro'mol tutqazibdi va: «Belingga arqon bog'lab, mana shu kavakka tushasan. U yerda uchta xona bo'lib, ularning ikkitasida qimmatbaho toshlar to'ldirilgan qutilar

bor. Uchinchi qutida esa bitta oddiygina tosh bor. Ikki sandiqni o'zingga olib, uchinchisini menga berasan. Lekin har bir xona eshigi oldida bahaybat itlar poyloqchilik qilishadi. Mana bu ro'molchani silkitsang, ular qimirlay olishmaydi», debdi.

Yigit kampir aytganidek qilibdi, ro'molni silkitib, ko'zlari kosadek itlarni qimirlatmay qo'yibdi. Qutilarni olib, arqonga osilganча kavakdan chiqib olibdi. So'ngra, fikri o'zgarib qolibdi. Oddiygina toshni ham kampirga bergisi kelmay, uning boshini tanasidan judo qilibdi.

To'satdan boyib ketgan yigitning oshnalari ko'payib, kayfu safoga berilibdi. «Yotib yeganga tog' ham chidamas» deganlaridek, mol-dunyosi ham tugabdi. Og'aynilarining qadami ham uzilibdi. Xafa bo'lib, daraxt kavagidan olib chiqqan toshini o'ynab o'tirgan ekan, unda qimmatbaho toshlar sirini ochgan kampirning aksi ko'rinibdi: «Sen menga yomonlik qilgan bo'lsang ham, men senga yaxshilikni ravo ko'raman. Qo'lingdagi toshni uch marotaba silab tilagingni tila, bari muhayyo bo'ladi», debdi. Yigitning hayoti yana izga tushib ketibdi. Lekin vijdoni juda qiynalibdi. Endi boyligini huda-behuda emas, xayrli ishlarga sarflaydigan bo'libdi.

Sholaziz SHOHIDOYEV,
poytaxtdagi 4-maktabning 5-«A» sinf o'quvchisi

O'qituvchi: «Men yuvinyapman, sen yuvinyapsan, u yuvinyapti», desak, qaysi vaqtni bildiradi?
O'quvchi: – Ertalalabki vaqtni...

– Shahlo, «X» xarfi bilan boshlanadigan qanday so'zlarni bilasan?

– Xo'rozqand.
– Yana-chi?
– Yana bitta xo'rozqand.



QISH

Yana qish fasli keldi,
Bizni izlab olisdan.
Xursand bo'ldi bolalar,
Xalos bo'lib ko'p ishdan.

Bolalarga soz bo'ldi,
Qalbiga quvonch to'ldi.
Risolatxon IBRAGIMOVA

**SHODLIKLARNING
BULBULI**

Bolalar, siz dunyoni
Boshqaruvchi kelajak.
Kelajakning har oni,
Qo'lingizda bo'lajak.
Ko'nglimizning nurisiz,
Shodliklarning bulbuli.
G'am sizdan bo'lsin yiroq,
Yashang baxtiyor, quvnoq.

*Xadicha JALOLOVA,
Yangiyo'l shahridagi
4-umumta'lim maktabining
8-«B» sinf o'quvchisi*



**BOLALIKKA
QAYTAMAN**

Ertak eshitib unda,
O'ynab qolgim kelardi.
Men ham bir go'zal gulni,
Uzib olgim kelardi.

Hali unda yosh edim,
Ertakka dildosh edim.
O'qiyverib ertaklar,
Kitob-la sirdosh edim.

Bolalikda ko'rganim
Ertakni bugun ko'rdim.
Xotiralar uyg'onib,
Gulga mahliyo bo'ldim.



*Rustam TUROPOV,
Zangiota tumani*

ONA QISHLOG'IM

O, ona qishlog'im, yangiqishlog'im
Seni ko'rsam, oydek to'laman.
Yalangoyoq, ham qora soch,
Yosharaman, bola bo'laman.
O, ona qishlog'im, yangiqishlog'im
Seni ko'rmas qanday o'laman.
Agar o'lsam, vasiyatim bor,
Quchog'ingga borib to'laman.

*Erkin OXUNJONOV,
Andijon viloyati, Andijon tumani*

OYUZLIGIM

(Mohichehra jiyanimga)



Asta qadam tashlaydi,
Xarxashasin boshlaydi.
Charos ko'zin yoshlaydi,
Jiyanim, oyyuzligim.

Bo'ynida ko'zmunchog'i
Qo'lida qo'g'irchog'i.
Yig'lasa ovunchog'i,
Jiyanim, oyyuzligim.

Dadasining erkasi,
Oyisining serkasi.
Yorug' bo'lsin ertasi,
Jiyanim, oyyuzligim.

*Barno MELIBOYEVA,
Yangiyo'l tumani, Navbahor qishlog'i*

YANGI AVLOD

Kelajakning poydevori,
Hur millatning g'urur-ori.
Obod yurtning iftixori,
Yangi avlod, yangi avlod.

Mustaqillik bizga qanot,
Qalbimizda ajib bayot.
Qurajakmiz nurli hayot,
Yangi avlod, yangi avlod!

OYMOMA

Yonimdagi odamlarni
Qiyoslasam gullarga.
Osmondagi oymomani
O'xshataman onamga!



Onajonim, mehringizdan
Biz farzandlar kamol topdik.
Yorug' jahon chamanzordan,
Ona Vatan mehrin tuydik.


*Dilshoda AVVALBOYEVA,
Toshkent shahridagi
274-maktab o'quvchisi*

BIR O'RIKNING...

Bir o'rikning shoxlari ham egilibdi,
Ko'chamizda xazon bilan tikilibdi.
Necha yillar shamol bilan arazlashib
Oqibatda yakka o'zi yengilibdi.

Men eshitdim shu o'rikning nolasini
To'zib qolgan xazonlarning tolasini.
Asta uni bir chekkaga yig'ib qo'ysam
Ko'rib qoldim yangi nihol bolasini.

*Nargiza YUNUSOVA,
Nafis san'at litseyining
9-«S» sinf o'quvchisi*



TINCHLIK NIMA?

Tinchlik nima o'zi?
Oltin belanchak.
Tinchlik nima o'zi?
Go'zal kelinchak.
Tinchlik nima o'zi?
Qo'limdagi non.
Tinchlik nima o'zi?
Quyoshli osmon.
Tinchlik nima o'zi?
Tilimdagi bol.
Tinchlik nima o'zi?
Ko'kdagi hilol.
Tinchlik nima o'zi?
Quyosh kulgusi.
Tinchlik nima o'zi?
Gullar tuyg'usi.
Tinchlik nima o'zi?
Nurli istiqbol.
Tinchlik nima o'zi?
Porloq istiqbol.

Ko'zmunchoqdek ko'zlari,
Shirin-shakar so'zlari.
Biram do'mboq yuzlari,
Jiyanim, oyyuzligim.

*Oqila BAHROMOVA,
Qashqadaryo viloyati,
Yakkabog' tumanidagi*

61-maktabning 9-sinf o'quvchisi

Samarqandga har borganimda, bir rivoyat
eshitib kelaman. Bu safar ham quruq
qaytmadim. Sultonlar donishmandi Mirzo
Ulug'bek borasida go'zal bir hikoyatga oshno
bo'ldim.

Rivoyat qiladilarki, Mirzo Ulug'bek
zamonida Samarqandda Sirojiddin degan
o'rtahol bir savdogar bor edi. Bir kuni u tijorat
yumushlari ila Buxoroga bormoqchi bo'ldi.
Uning niyatini yon qo'shnisi eshitib qoldi va
hamroh bo'lish istagini bildirdi. Olis yo'lda
yo'ldosh yaxshi, dedi o'zicha Sirojiddin va
hamsoyasini qabatiga oldi. Uning ismi
Ko'chkinboy edi. Ikkovlon Buxoroi sharif
qaydasan, deb yo'lga tushdilar. Siyob suvidan
o'tib, Darg'om daryosining bo'yida, azamat
bir gujum ostida tushlik qildilar. Biroz dam olib,
tag'in yo'lga otlandilar. Biroq, to'satdan
Ko'chkinboyning tobi qochib qoldi va uyiga
qaytib ketmoqchi bo'ldi. Sirojiddin belbog'ini
yechib, unga yuz tillo cho'zdi.

– Mana buni biznikilarga berib qo'y, jo'ra,
– dedi u, – men yo'g'imda qiynalib-netib
yurishmasin, ro'zg'orga ishlatsin.

Ko'chkinboy ketdi. Sirojiddin bir
karvonga ergashib, yetti kun deganda
Buxoroga yetib keldi. Oldi-sotti ishlarini
bitirdi. Yana kichikroq bir karvonga qo'shib,
Samarqandga ravona bo'ldi. Omon-esson
kelib, eshigini qoqdi. To'rt ko'z tugal
o'tirishgan ekan. Sirojiddin ayolidan
Ko'chkinboyga bergan pulini so'radi. Ayoli
hayron bo'ldi.

– Qo'shningiz hech narsa bergani yo'q,
otasi. Bir haftadan berisiga qiynalibroq

o'tirgan edik...

Sirojiddin qo'shnisining oldiga chiqdi.
Ko'chkinboy uni xushlamay kutib oldi.

– Senda iymon yo'q ekan asli, – dedi
Sirojiddin, – biznikilarni ochidan o'ldiray
debsan-ku, noinsof. Nega omonatimni
bermading?

– Qanday omonat? – deb Ko'chkinboy
yelka qisdi.

– Gujumning ostida olgan yuz tilloni
aytayapman, esingdan chiqdimi?

Ko'chkinboy bez bo'lib
turaverdi.

– Bundan
ham boshqa
tuhmating bor-
mi, jo'ra? Qanday
gujum, qanday yuz
tillo?

Sirojiddin ko'rdiki, Ko'ch-
kinboy xiyonatini bo'yniga
olmoqchi emas.

– Bo'pti, sen qasamxo'r
bilan boshqa yerda gaplasha-
man, – deb chiqib ketdi.

O'sha kezlar Samarqandda
tijorat avjida edi. Sulton
Ulug'bek tujjorlarga o'zgacha
rag'bat ko'rguzar, Samarqandni
madinat – attujor, savdogarlar
shahri, deya faxr etardi. Buni
Sirojiddin ham yaxshi bilardi.
Shuning uchun arzi hol aytib, bir
kuni to'g'ri Sulton Ulug'bekning

huzuriga bordi. Shoh oldida tiz cho'kdi.

– Men ul ko'rnamakni yo'lda boqdim, tobi
qochganida dori-darmon topib berdim. Oxiri
yaxshilik qilib yomonlik ko'rdim. Iymonini
yutib, omonatimni bermay o'tiribdi...

Mirzo Ulug'bek Ko'chkinboyini chorlatdi.
Ikki hamsoyasini baqamti qildi. Ko'chkin
olgan pulidan tonib qasam ichdi. Mirzo
Ulug'bek Sirojiddinga o'girildi.

– Janob tujjor, siz hoziroq yo'lga chiqing.

**GUJUMNING
YETTI YAPROG'I**



Rivoyat



Sa'dulla SIYOYEV

To'g'ri o'shal gujumdan yetti yaprog'
uzib keltiring. Biz alarni guvoh o'rnida
qabul qilgaymiz. Siz kelguncha bul
jo'rangiz birla suhbat qurgaymiz.

Sirojiddin ketdi. Mirzo Ulug'bek
Ko'chkinboy bilan ob-havo, narx-navo
deganday ahamiyatsiz mavzularda
gaplashib o'tirdi. Bir zamon gap orasida
shunchaki so'rab qoldi:

– Siz ne fikrdasiz,

oshnangiz gujumga
yetganmikin?

Ko'chkinboy
shohona suhbat
girdobida g'arq edi.

– Yo'q, hali
yetmadi, u yer bir kunlik
yo'ledi, – deb yubordi-
yu, tilini tishladi. Lekin
kech bo'lgan edi. Mirzo

Ulug'bek uning betiga qahrli tikildi.

– Sen muttahaam ekansan, Ko'chkin!
Demak, gujumning soyasida orom
olganing ham, birovning haqiga xiyonat
qilganing ham oriy rost. Senga ne jazo
beraylik, o'zing ayt? Eshakka teskari
mindirib shahar aylantiraylikmu yoxud
ellik tayoq afzalroqmu?

Ko'chkinboy Mirzo Ulug'bekning
oldida yer o'pib tavba-tazarru qildi.

Omonatga xiyonat qilganini
tan oldi va hamsoyasining
pulini qaytarib berdi.

XALQ MEHRINI DILGA JO QILDIM

«Yoshlar yili»mizni kuzatib, sabrsizlik bilan eshik qoqayotgan yangi – «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili»ga yangi-yangi orzu-umidlar, rejalar bilan qadam qo'yayotgan yoshlardan bir nechasi bugun yana so'z so'raydi:



Dilafro'z USMONOVA,
«Zulfiya» nomidagi Davlat mukofoti sohibasi:

– Yodimda bor, buvijonim ikkimiz ilk she'rlarimni «Tong yulduzi» gazetasi tahririyatiga olib borganimizda, besh yoshli jajjigina qizaloq edim. O'shanda men haqimda maqola chop etilib, unda adabiyotga, she'riyatga bo'lgan ishtiyoqim, bu yo'nalishda ko'plab tanlov va Olimpiadalarda qo'lga kiritayotgan yutuqlarim haqida yozilgandi. Shu maqola turtki bo'ldi-yu, she'riyatning sirli olamiga «sho'ng'ib ketdim». Adabiyot ixlosmandlari bo'lgan buvijonim va onajonimning ijodimga e'tibori ishtiyoqimni yana-da oshirdi. Olti yoshimda Shayxontohur tumanidagi 169-maktab ostonasiga qadam qo'yib, uni a'lo darajali shahodatnoma bilan tamomlagan kunim uyimizda haqiqiy bayram bo'lib ketgandi.

Bu davr mobaynida ko'plab maktab, mahalla, tuman miqyosidagi tadbir va tantanalarda boshlovchilik qildim. Bayram ssenariylari tashkilotchisi, turli ko'rik-tanlovlarga olib borganim bo'ldim. «Mustaqillik malikalari», «Kitobsevarlar», «Ajdodlar merosini o'rganamiz» kabi tanlovlarda yuqori o'rinlarni egallab, «Faxriy yorliq»lar bilan taqdirlandim. «Nafosat – 2003» yosh qalamkashlar tanlovida, «O'zbekiston - Vatanim mening» qo'shiq festivalida birinchilikni oldim.

Hozirda O'zMU qoshidagi Sobir Rahimov akademik litseyining 3-bosqichida tahsil olish bilan birga ingliz, arab, turk, koreys tillarini mukammal o'rganishga intilyapman. Shuningdek, she'riy mashqlarimni rus va ingliz tillariga tarjima qilishga urinyapman.

Rasm chizish eng sevimli mashg'ulotim. Bo'sh vaqtlarimda badiiy, tarixiy asarlar o'qiyman, buyuk allomalar siymolarini aks ettirishga urinaman.

Yana zamonaviy-milliy liboslar dizaynini yaratishga qiziqaman.

«Orzularim», «Umidlar qanotida» nomli she'riy to'plamlarim bosmadan chiqqanida, buvijonimning quvonganlarini bir ko'rsangiz edi...

«Yoshlar yili» deya e'tirof etilgan mazkur yilimizni «Hayot» otlig' umr daftaringa zarhal harflar bilan yozib qo'ydim. Sababi, xalqimiz mehri, yurtimiz ehtiromining yuksak timsoliga aylangan Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sohibasi bo'ldim. Kamtarona ijodimga berilgan bu oliy mukofot zimmandagi mas'uliyat hamdir. Chunki Zulfiyaxonim izdoshi bo'lib, jasorat va zakovat nishonini ko'ksiga taqish – xalqimizning qalb nafasini tuyish, dardiga malham-u quvonchiga sherik bo'lish demakdir.

Ana shunday ulkan muvaffaqiyatlarni qo'lga kiritishimda ustoz-u muallimlarimning xizmatlari, qolaversa, biz yoshlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, keng imkoniyatlarning o'rni beqiyos. Shunday ekan, men ham ona yurtim bildirgan yuksak ishonchni oqlab, uning haqiqiy komil farzandi bo'lishga intilib yashayman.

Sadoqat DADAYEVA,

O'zDJTU xalqaro jurnalistika fakulteti 2-bosqich talabasi:

SHU VATANGA BORDIR MENING KERAGIM

Bolaligimdan ijodga mehr qo'ydim. She'riy mashqlarimdan zavqlanib, katta maqsadlar sari mashaqqatli yo'lga otlandim. Shu kunga qadar erishgan ozmi-ko'pmi muvaffaqiyatlarimga qadrdonim «Tong yulduzi» oltin beshik bo'ldi.

«Iste'dod – 2002» ko'rik-tanlovida g'olib bo'lganimda ham, qator Respublika insholar tanlovida birinchilikni olganimda ham, ayniqsa, 2005-yil «Kelajak ovozi» mega tanlovida badiiy ijod yo'nalishi sovrindori bo'lganimda ham, mana shu gazetam meni olqishlab, yangi zafarlar sari yo'lladi.

Bolalikdagi beg'ubor orzularim bugun hayotimning



mazmuniga aylanib bormoqda.

«Yoshlar yili» oxirlab borayotgan ayni pallada tengdoshlarimga, uka va singillarimga aytar gapim bor: o'zimizni o'zimiz kashf etishni o'rganaylik! Vatanning koriga yarab yashamoqni maqsad qilaylik. Yoshlik inson umrining eng go'zal, betakror fasli. Bu faslda shunday chiroyli, ibratli ezgu ishlar qilaylikki, fursat o'tib, yoshlik xotiralarimizga hatto o'zimiz ham havas qilaylik!




BOLALARGA YANGI KINO



hali ham bolalarning diqqat e'tiborida. Lekin xorij kinostudiyalarida suratga tushirilayotgan filmlarning hammasi ham bizning yosh



tomoshabinlarga to'g'ri kela-vermaydi. Xorij kinorejissyorlari o'z mamlakati mentaliteti, madaniyati va urf-odatlariga



tayangan holda filmlarni suratga olishadi. Kino sanoati rivojlanib borayotgan ayni paytlarda yurtimiz kino ustalari tomonidan ham juda ko'plab filmlar namoyishi bo'lib o'tayotgani ham-mamizga ma'lum. Lekin bolalarbop sarguzasht-ertak filmlar juda kam suratga olinayotgani hech kinga sir emas.

Yaqinda «O'zbekkino» milliy agentligi siz aziz bolajonlarni quvontirish maqsadida, ajoyib sarguzasht filmni suratga oldi va uning namoyishiga sizlarni chorlab qoladi.

«O'zbekkino» milliy agentligi buyurtmasiga ko'ra, «Bayramfilm» studiyasida suratga olingan film – «Pentium-6 Shatranj mamlakatida» deb nomlanadi.

– Filmda bolajonlar ajoyib va g'aroyib voqealarning guvohi bo'lishadi. Yoshlarning shaxmatga bo'lgan qiziqishi oshadi. Bu film «O'zbekkino»ning bolajonlarga Yangi yil tuhfasini, – deydi film rejissyori Jasur Isoqov.

Sarguzasht-ertak janrida suratga olingan film – yosh shohmot ustasi Ilhom va uning sarguzashtlari haqida bo'lib, u o'z iqtidori tufayli «Lop-top» sehrli qurilmasini qo'lga kiritadi. Ilhom sehrli qurilma yordamida yaqin do'sti Habiba bilan ertaklar mamlakatiga sayohat qiladi va ajoyib sarguzashtlarni boshdan kechiradi. Bolakaylar Shatranj mamlakati zindonida bandi etilgan Shahzodani ozod qilishga bel bog'lashadi. Ammo shaxmat o'yinini jonidan ham ortiq yaxshi ko'radigan hukmdor – Shatranjshoh ularga g'alati shart qo'yadi: bolakaylar uni shohmot o'yinida mot qilishsagina, Shahzodani ozod qilishini aytadi. Shunda...

Yo'q! Hammasini aytib qo'ysam, filmni kim ko'radi? Qolganini film namoyishiga kirsangiz, o'zingiz ko'rishingiz mumkin. Ha, aytgancha, filmda shaxmat bo'yicha jahon chempioni Rustam Qosimjonov ham suratga tushgan.

Ushbu film yaqin kunlarda Alisher Navoiy nomli kinoteatrdan namoyish etiladi. U ham sevimli filmlaringiz qatoridan o'rin oladi, degan umiddamiz.


YAXSHI

«Bir bor ekan...» Ertaklar o'qishni jon-dilidan sevadigan har bir o'g'il-qiz bu so'zlarni o'z gacha bir tuyg'u bilan eslashadi. Chunki xalqimizning boy merosi – o'zbek xalq ertaklarining qarayb hammasi shunday yoqimli so'zlar bilan boshlanadi.

«O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyi «Bir bor ekan...» nomi bilan xalqimizning



KITOBILAR



eng yaxshi ertaklaridan iborat to'plamni ko'p ming nusxada nashrdan chiqardi. Kitobda bolalar jon-quloq bo'lib tinglaydigan va sevib o'qiydigan «Uch og'ayni botirlar», «Qilich botir», «Semurg», «Ziyod botir», «Egri va to'g'ri», «Zumrad va Qimmat» kabi o'n bir ertak joy olib, o'quvchilarni qadimiy sarguzashtlar olamiga boshlaydi.

Kitobdan joy olgan ertaklarni taniqli noshirlar Jabbor Razzoqov va Anvar Madrahimovlar to'plab,

nashrga tayyorlaganlar. Bolalarga o'zining ajoyib rasmlari bilan mashhur bo'lgan taniqli musavvir Rustam Zufarov to'plamdagi ertaklarni qiziqarli voqealar asosidagi rangin rasmlar bilan bezagan.

Nashriyat jamoasi bolalar uchun 2008 – «Yoshlar yili» da 50 ga yaqin turli mavzudagi kitoblarni nashrdan chiqardi. Bu kitoblar o'g'il-qizlarga nashriyotning Yangi yil sovg'asidir.



BOR



BIRINCHILIK



Kechagina yurtimizga Turkiya, Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston kabi mamlakatlardan kelgan sportchilar kuch sinashdi.

Dunyoning 87 mamlakati sportchilarini birlashtirgan Jahon shotakan karate-do federatsiyasi rahbariyati ilk Osiyo chempionatiga mezbonlik qilish huquqini o'zbekistonlik sportchilarga topshirdi.

Mamlakatimiz karate-do assotsiatsiyasi (prezidenti

Xo'jamqul Xo'jamqulov) 2003-yilda xalqaro federatsiyaga a'zo bo'lgan.

Osiyo chempionatining yakka kata va kumite bahslarida karatechilarimiz tengsiz mahorat egasi ekanliklarini yana bir bor isbotlashdi. Jamoaviy katta bellashuvlarida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston va Tojikiston karatechilari sovrinli o'rinni egalladi. Jamoaviy kumite bo'yicha kuchli uchlik Qozog'iston, O'zbekiston va Tojikiston vakillaridan tarkib topdi.

Ikki kun davom etgan musobaqa yakuniga ko'ra, O'zbekiston karatechilari umumjamo'a hisobida birinchi o'rinni egallashdi.

G'alaba muborak, karatechilar!

OLTIN MEDAL KUMUSH BO'LDI

Moskvada o'tgan boks bo'yicha jahon kubogi musobaqasida ham terma jamoamiz vakillari quvonch bilan qaytdilar. Ikkita kumush va ikkita bronza medallari bilan umumjamo'a hisobida uchinchi o'rinni egallagan sportchi akalaringiz musobaqada dunyoning manaman degan charm qo'lqop ustalari bilan bellashdilar.

Yurtimiz sharafigini himoya qilgan besh nafar charm qo'lqop ustasidan 2007-yil jahon chempioni Abbas Atoyev xorvatiyalik Mario Sivoliyani 12:0 hisobida dog'da qoldirdi.

Terma jamoamizning tajribali a'zosi Dilshod Mahmudov fransiyalik Xavye Noyelga qarshi o'tkazilgan uchrashuvda 10:3 hisobida zafar quchdi.

Abbas akangiz yarim finalda tojikistonlik Jahon Qurbonovni, Dilshod esa latviyalik Dmitris Sostaksni mag'lub etishga erishdi. Hal qiluvchi bellashuvda A. Atoyev mezbonlar vakili A. Beterbiyevga, D. Mahmudov esa kubalik K. Suaresga imkoniyatni boy berdilar. Natijada oltin medal emas, kumush medal egasiga aylandilar.

Shuningdek, Afina Olimpiadasi sovrindori Bahodir Sultonov hamda yoshlar o'rtasida jahon chempioni Elshod Rasulov terma jamoamiz hisobiga bittadan bronza medalini qo'shib qo'yidilar.

Champion akalaringizga Yangi yilning yangi zafari muborak bo'lsin!

SIRKDAKI BELLASHUV



«O'zbekdavlatirsiki» binosida siz doimo sirk tomoshalarini miriqib tomosha qilardingiz. Yangi yil eshik qoqib turgan paytda esa sportchilarimiz sirk binosiga yig'ildilar. U yerda mamlakatimiz Konstitutsiyasi qabul qilingan kunga bag'ishlab sportning

muaytay (tayboks) turi bo'yicha O'zbekiston kubogi musobaqasi bo'lib o'tdi.

«O'zbekiston muaytaychilari giyohvadlikka va terrorizmga qarshi» shiori ostida tashkil etilgan musobaqada o'ttizdan ziyod eng kuchli sportchi o'n olti vazn toifasida ringga chiqdi.

Ikki kun davom etgan O'zbekiston kubogi bellashuvlari 2009-yilning aprel oyida Tailandda bo'ladigan yakkakurash turlari bo'yicha navbatdagi jahon o'yinlariga tayyorgarlikning birinchi bosqichi hisoblanadi.

Musobaqada murabbiy va mutaxassislar ishonchini oqlagan muaytaychilar mamlakatimiz terma jamoasi tarkibida kelasi yili qit'a va jahon miqyosida bo'ladigan musobaqalarda Vatanimiz sharafigini himoya qiladilar.

Ma'mura MADRAHIMOVA tayyorladi

LIMONDAN SHIFO TOPING

Aziz bolajonlar! Limon choyini ichganingizda ishtahangiz ochilib, tanangiz ancha quvvat oladi-a?! Bay-bay, juda yoqimli va nordon ekan, deysizmi? Lekin uni ming dardga davo, deb bejizga aytishmas ekan. Bu maqolani o'qisangiz, o'zingizga kerakli bo'lgan ma'lumotlarni olasiz.

Limon ko'pyillik o'simlik. Bir tup limon daraxti o'rtacha 180-200 donagacha meva beradi. Uning mevasini yetishtirish uchun limon urug'i yoki kurtagi yordamida ko'paytiriladi.

Limondan davolovchi vosita sifatida keng qo'llaniladi. Uning sharbati tomoqdagi har xil shishlarni davolaydi. Undan tashqari, limon

sharbati bosh og'rig'i, asab buzilishi va shamollashga qarshi ishlatiladi. Limonning efir moyi tanaga quvvat berib, kayfiyatingizni ko'taradi.

Bosh og'riganda: Yangi uzilgan limon po'stining oq to'qimalari olib tashlanib, chakkaga nam tomoni bilan qo'yiladi va bir necha daqiqa ushlab turiladi. Birozdan so'ng terida qizil dog' paydo bo'ladi, bosh og'rig'i bosiladi.

Tish og'riganda: Og'iz bo'shlig'ini limon suvi bilan chayish yordamida tish og'rig'ini to'xtatish mumkin. Muolaja tugagandan keyin og'izdagi limon kislatasi qoldiqlarini yo'qotish uchun og'izni ichimlik sodasining suvdagi eritmasi bilan chayib tashlash lozim. Bir stakan suvga 1 choy qoshiq soda solinadi.

Manzura UBAYDULLAYEVA tayyorladi



BOSH MUHARRIR:
To'liqin HAYITOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 0208-raqam bilan 2007-yil 2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

TAHRIR HAY'ATI:
G'ayrat SHOUMAROV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA.

Manzillimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 244-27-25, 244-63-08
Tel./faks: (99871) 244-38-10

Rassom:
Feruza MATYOQUBOV

«O'zbekiston» nashriyat-matbaa ijodiy uyida chop etildi. Haftaning dushanba kuni chiqadi. Shakli A-3, 2 bosma taboq. ISSN 2010-6092

Adadi - 24656
Buyurtma N: J 6570

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Dizayner va sahifalovchi:
Zuhra MUHSIMOVA
Navbatchi:
Axtamqul KARIM